



NIYOZIY ASARLARIDA MAKTUBNING AHAMIYATI (“ZAHARLI HAYOT YOHUD ISHQ QURBONLARI” DRAMASI MISOLIDA)

Boltayeva Iroda

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15572002>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hamza hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub bo‘lgan “Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari” dramasi dagi makubning asar qurilishida, ma’no-mazmunida qanchalik muhim ekani, Maryamxonning Mahmudxonga yozgan maktubining asl mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktub, g‘unchayi muhabbat, faqira, qorong‘u vatan, qizlar maktabi, millat quyoshi. millat mohitoboni

Annotation: This article discusses the importance of the letter in the drama "Poisonous Life or Victims of Love" by Hamza Khakimzoda Niyoziy in the construction of the work, its meaning and content, and the true essence of Maryamkhan's letter to Mahmudkhan.

Keywords: letter, budding love, poverty, dark homeland, girls' school, the sun of the nation. national magazine

Аннотация: В данной статье рассматривается значение макуба в сборнике «Зехарли хаёт яхуд ишк курбуллари» (Ядовитая жизнь или жертвы любви) Хамзы Хакимзода Ниязи, а также истинная суть письма Марьямхан Махмудхану.

Ключевые слова: письмо, зарождающаяся любовь, бедность, темная родина, женская школа, солнце нации. государственный гимн

XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy adabiyot tarixida o‘zining millatparvar asarlari bilan munosib o‘ringa ega. Chunki u dunyo ko‘rgan, turli mamlakatlarning madaniyati bilan tanishib, o‘zbek xalqining savodli bo‘lishi uchun harakat qilgan. O‘sha davr maktablari uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklar yaratgan. Marg‘ilonda “G‘ayrat” kutubxonasini ochadi Har doim xalqni ma‘rifatga, ilimga chorlaguvchilar sho‘rolar tuzumi davrida har doim ham yaxshi baholanavermagan. Hamza ham ularning tayziq va tuhmatlariga uchragan jonkuyar, millatparvar jadidlardan bo‘lgan. Uning bizgacha yetib kelgan asarlaring barchasi millatni uyg‘oqlikka, ma‘rifatparvarlikka chorlaydi. Aynan shuning uchun ham sho‘rolar uni xavfli joylarga, qaltis ishlarga safarbar etadi. Hamza Hakimzoda Niyoziydan boshqa hech bir jadid ijodi hayotlik vaqtida o‘rganilmagan. Chunki Niyoziy to‘g‘iso‘z bo‘lgan. 1929-yilda Shohimardonda yaxshiyona tarzda ya‘ni toshbo‘ron qilinib o‘ldiriladi. Bunday yaxshiy va qonxo‘r





insonlar Niyoziyning jasadinigina yo'q qila olishdi. Uning bizga qoldirgan adabiy me'rosi niyoziyning oramizda barhayot yashashini ko'rsatadi.

Niyoziy faqat nasriy asarlar yaratish bilan cheklanib qolmasdan dramaturgiyasi bilan ham adabiytimiz tarixida o'chmas iz qoldirishga muaffaq bo'lgan. U asosan Qo'qon teatr guruppsi uchun sahna ko'rinishlar yaratgan. 1915-yilda yozilgan "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" dramasi Hamzaning bu sohadagi birinchi harakati edi. Undan so'ng "O'ch", "Muxtoriyat yoki avtonomiya", "Kim to'g'ri?", "Boy ila xizmatchi" kabi sahna asarlari yaratgan. "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" dramasi to'rt pardadan tashkil topgan. Niyoziy asarning janrini "Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi" deb belgilaydi asarning bosh qahramonlari Mahmudxon va Maryamxonim qismati orqali o'sha davrdagi ma'rifatsiz, boylikka o'ch insonlarning naqadar razil kimsa bo'lishganinini ochib beradi. Asarning asl mohiyatini ochib berish uchun Maryamxonning Mahmudxonga yozgan maktubidan bilib olishimiz mumkin. U quyidagicha: "G'unchayi muhabbatim, suyukli Mahmudxon! Men sizga naqadar muhabbatni da'vosindan yozmayki, vaqtingiz muosida o'lasin uchun so'zni qisqartub, maqsadgagina qalam yurutdim... ikkovimiz elimizni, zulmatda qolgan bu millatni, Siz quyoshi bo'lganda, men mohtobi bo'lib, qorong'u vatanni yoritaylik, Siz-da, erlarimizning holindan men mazluma oilalarimizning holindan gazetalarga yozishib, bir-birimizni ogohlantiraylik" Bu yerda namoyon bo'lishicha, Maryamxon muhabbatinigina izhor qilib qolmasdan shu el-yurtdagi insonlarning taqdirini o'ylagani holda yozmoqda, ya'ni zulmatta qolgan millatni yoritishni ilgari surmoqda. Maktubning keying misralarida Maryamxonning naqadar millat uchun kuyib-pishishi, Mahmudxon va Maryamxonlarning orzu-o'ylari aks etadi. "Garchi Siz tijoratda bo'lsangiz-da, chin maqsudingiz bo'lgan qizlar maktabini ochaylik: men ma'naviy. Siz moddiy xizmatda bo'ling, chin yashaylik, kelajakdagi avlodlarimizni mozorimizga borib, erlari Sizga, qizlari bizning qabrimiz uzasina, oq, qizil gular sohib ruhlarimiz olqishlarlik darajada bir xizmatlarni maydonga qo'yaylik..." Mening o'ylashimcha, Ushbu asarda Mahmudxon qiyofasi orqali Niyoziy o'zini nazarda tutgan. Negaki U ham maktab ochib qizlarni o'qitish, ularni ma'rifatli qilish, qizlarni ham jamiyatdagi o'rnini topishi uchun juda ham ko'p sa'y-harakatlar qilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy Maryamxon obrazi orqali xotin-qizlarning ham qo'lidan nimadir kelishini isbotlaydi. Maryamni ota-onasi majburlab eshonga uzatishsa ham u o'zini eshondan, ya'ni Xudo bexabar, bema'rifat, zolim kimsaning qo'lidan qutqarib oladi. Biz yana bua sarda tabaqalashtirishni ham ko'ramiz. Mahmudxonning otasi Hamdamboy Maryamdek ilmlil, ma'rifatli qizni oddiy kosibning qizi





bo'lganligi uchun Mahmudxonga munosib deb ko'rmaydi. Oxir oqibat zulmga qarshi kurashayotgan sevishtanlar halok bo'lishadi. Yuqoridagi maktubda esa ularning maqsadi nima ekanini ko'rib chiqqan edik. Mahmudxon drama davomida Maryamxonga nisbatan ancha sust, Maryamxon uni kurash maydoniga chorlovchi kuch sifatida gavdalanadi. Bu bilan muallif ayol kishilarning ham nimagadir turtki vazifasini bajara olishini namoyon etgan. Maryamxon zahar ichib halok bo'lganidan so'ng Mahmudxon uning qabri yoniga birib aytgan monologi shu darajada kuchliki tinglovchini qalbini larzaga soladi. Mahmudxonning o'lim oldidagi monologi fojining asl mohiyatini yanada ochishga xiamat qiladi: "Maryam, Maryamxonim, man dunyoda yashamam!.. Kecha oqshom Maryamxon muhabbat qurboni edi, biz bugun insoniyat, millat qurboni! Mundog' jaholat, mundog' ilmsizlik... islomiyatni qo'yib, dunyo yo'liga qadam bosuvchi diyonatsiz qora xalq orasinda tiriklikdan, albatta, o'lim yaxshi, O'lim!."

Xulosa o'rida shuni aytish joizki, Niyoziy nafaqat millatni yuksaltirish balki, Sho'rolar tuzumidan qutulib, xalq ozodligi va farovonligi yo'lida kurashish g'oyasini ilgari surgan. Uning har bir asari jaholatga qarshi kurashish, ilmsizlikdan qutilish uchun yozilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" dramasi ham aynan shu ruhda yozilgan asarlar sirasiga kiradi. Maryamxon va Mahmudxon obrazlari orqali o'zinging g'oyalarini ko'rsatib berishga muaffaq bo'lgan. Niyoziy nega aynan maktub orqali ularning asl maqsadini ko'rsatgan bo'lishi mumkin degan savol paydo bo'lishi tabiiy albatta. Men bu savolga quyidagicha javob topdim: badiiy adabiyotda xatning o'rni beqiyosdir. Chunki inson yuzma-yuz kelgan vaqtida aytolmagan gaplarini aynan xat orqali to'liq ochib berishga muaffaq bo'la oladi. Xatni o'qiyotgan inson ham aynan uning nima demoqchi bo'lganini anglay olishi oson bo'ladi. Ikkinchidan oshiq o'zining yorini yoniga borganida unga nima demoqchi ekani aniq ayta olmaydi. Unda fikrlar tarqoqligi bo'lishi mumkin. Yana bir jihatdan bu milliy qadriyatlarimizga borib aqaladi. Ayol kishining erkak kishi yoniga borib, tik ko'ziga boqib gapirishi tugul unga gapirishi ham o'zbekchilikka to'g'ri kelmaydi va bunga ayniqsa o'sha davrlarda alohida e'tibor berishgan. Balki, bu ham bir sabab bo'la olar. Lekin Niyoziy maktubni faqat Mahmudxonga emas, bu maktubni o'qigan har bir shaxsga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Jadid adabiyotida shuni uchratamizki, har bir jadid o'zi ilgari surayotgan g'oyani asar qahramonlari tilidan yetkazib berishga qaratilgan, xoh u ayol obrazi xoh erkak bu ahamiyatsiz muhimi o'sha g'oyani yetkazib berish va millatni uyg'oqlikka





chaqirishdan iborat bo'lgan. Umuman olganda Hamza Hakimzoda Niyoziyning qaysi asarini o'qimaylik albatta bu narsaga duch kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov Milliy uyg'onish o'zbek adabiyoti Toshkent-2004
2. Hamza hakimzoda Niyoziy Saylanmasi G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent – 1979
3. 7-sinf Adabiyoti “ShARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KAMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT-2017
4. <https://jadid.uz/>

